

IV. INVESTITSİYALAR VA QURILISH

2022- yil yanvar-mart oylarida asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning umumiy hajmi milliy valyutada 2 750,2 mlrd. soʻmni (AQSh dollari ekvivalentidagi hajmi 0,3 mlrd. AQSh dollarini) yoki 2021- yilning mos davriga nisbatan oʻsish surʻati 125,5 %ni tashkil qildi.

Moliyalashtirish manbalari boʻyicha asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning taqsimlanishi


(2022- yil yanvar - mart)

	<i>mlrd. soʻm</i>	<i>oʻsish surʻati, %da</i>	<i>yakunga nisbatan % hisobida</i>
Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar	2 750,2	125,5	100,0
<i>shu jumladan</i>			
Markazlashgan investitsiyalar:	97,8	85,5	3,6
Respublika budjeti	34,5	96,5	1,3
Tiklanish va taraqqiyot jamgʻarmasi	-	-	-
Suv taʼminoti va kanalizatsiya tizimlarini rivojlantirish jamgʻarmasi	13,6	60,3	0,5
Xukumat kafolati ostidagi xorijiy kreditlar	49,7	194,4	1,8
Markazlashmagan investitsiyalar	2 652,4	127,7	96,4
korxonalarining oʻz mablagʻlari	352,2	110,2	12,8
aholi mablagʻlari	472,3	122,9	17,2
toʻgʻridan-toʻgʻri va boshqa xorijiy investitsiya hamda kafolatlanmagan xorijiy kreditlar	1 597,2	190,9	58,1
tijorat bank kreditlari va boshqa qarz mablagʻlari	230,7	43,0	8,3

Davlat budjetidan ajratilgan investitsiyalar ijtimoiy sohani va hayotiy taʼminot tizimini qoʻllab quvvatlashga, Fargʻona viloyati infrastrukturasi rivojlantirishga qaratilgan manzilli investitsiya dasturlarini amalga oshirish uchun yoʻnaltirilgan.


Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarda markazlashgan va markazlashmagan investitsiyalarning ulushlari

(yanvar-mart umumiy hajmga nisbatan, %da)




Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning markazlashgan moliyalashtirish manbalari

(yanvar-mart jami investitsiyalar hajmidagi ulushi,%da)




Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning markazlashmagan moliyalashtirish manbalari

(yanvar-mart jami investitsiyalar hajmidagi ulushi, %da)




Markazlashgan moliyalashtirish manbalari hisobidan jami investitsiyalardagi tarkibi, %da

O'tgan yilning mos davriga nisbatan, o'sish sur'ati %da



Markazlashmagan moliyalashtirish manbalari hisobidan jami investitsiyalardagi tarkibi, %da

O'tgan yilning mos davriga nisbatan, o'sish sur'ati %da



Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning markazlashgan moliyalashtirish manbalari hisobidan kiritilgan jami investitsiyalar 97,8 mlrd. soʻmni tashkil etib, oʻtgan yilning mos davriga nisbatan 85,5 %ni tashkil etib (umumiy hajmdagi ulushi 3,6 %), shundan budget mablagʻlari 34,5 mlrd.soʻmni, oʻtgan yilning mos davriga nisbatan 96,5 %ni tashkil etib, (umumiy hajmdagi ulushi 1,3 %), Oʻzbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi Suv taʼminoti va kanalizatsiya tizimlarini rivojlantirish jamgʻarmasi 13,6 mlrd. soʻmni tashkil etdi, oʻtgan yilning mos davriga nisbatan 60,3 %ni tashkil etdi. Oʻzbekiston Respublikasi kafolati ostidagi xorijiy investitsiya va kreditlar 49,7 mlrd. soʻmni tashkil etib, oʻtgan yilning mos davriga nisbatan 194,9 %ni tashkil etganini taʼkidlash lozim.

Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning markazlashmagan moliyalashtirish manbalari hisobidan kiritilgan jami investitsiyalar 2652,4 mlrd. soʻmni tashkil etdi, oʻtgan yilning mos davriga nisbatan 127,7 %ni (jami investitsiyalar hajmidagi ulushi 96,4 %) tashkil etdi. Shundan jami investitsiyalar hajmida eng koʻp ulush toʻgʻridan-toʻgʻri xorijiy investitsiya va kreditlar xisobiga toʻgʻri kelib, 1 597,2 mlrd. soʻmni tashkil etib, oʻtgan yilning mos davriga nisbatan 190,9 %ga oshgan (jami investitsiyalar hajmidagi ulushi 58,1 %), korxonalarining oʻz mablagʻlari hisobiga oʻzlashtirilgan investitsiyalar 352,2 mlrd. soʻmni, oʻtgan yilning mos davriga nisbatan 110,2 %ni (jami investitsiyalar hajmidagi ulushi 12,8 %) tashkil etdi, 472,3 mlrd. soʻm aholi mablagʻlari hisobiga oʻzlashtirilgan investitsiyalar boʻlib, oʻtgan yilning mos davriga nisbatan 122,9 %ni (jami investitsiyalar hajmidagi ulushi 17,2 %) tashkil etdi. Tijorat banklari kreditlari va boshqa qarz mablagʻlari 230,7 mlrd. soʻmni tashkil etib, oʻtgan yilning mos davriga nisbatan 43,0 %ni (jami investitsiyalar hajmidagi ulushi 8,4 %) tashkil etdi.

**Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning
moliyalashtirish manbalari bo'yicha tarkibi**

(2022- yil yanvar-mart)

	<i>Jami investitsiyalar mlrd. so'm</i>	<i>Shundan, moliyalashtirish manbalari bo'yicha (mlrd. so'm)</i>					
		<i>Respublika byudjeti</i>	<i>Tiklanish va Taraqqiyot fondi va suv ta'minoti va kanalizatsiya tizimlarini rivojlantirish jamg'armasi</i>	<i>Korxonalar (maxalliy byudjet)</i>	<i>Aholi mablag'i</i>	<i>Bank kreditlari va boshqa qarz mablag'lari</i>	<i>Chet el investitsiyalari va kreditlari</i>
Viloyat jami:	2750,2	34,5	-	352,2	472,3	230,8	1646,8
Farg'ona sh	533,6	16,6		139,3	66,7	118,5	185,7
Qo'qon sh	254,3	0,4		35,9	160,9	37,9	19,1
Quvasoy sh	156,8	-		78,3	12,0	7,3	59,2
Marg'ilon sh	136,7	-		35,9	11,5	9,0	80,3
Oltiariq	95,8	-		0,1	0,7	-	94,9
Qo'shtepa	214,9	-		0,4	0,6	0,1	213,8
Bag'dod	99,0	-		-	0,5	3,4	94,5
Buvayda	46,6	-		3,9	22,4	2,2	18,1
Beshariq	115,1	0,2		-	0,1	0,2	114,6
Quva	78,5	-		18,2	22,7	4,6	33,0
Uchko'prik	173,8	0,1		15,5	19,6	13,7	125,0
Rishton	106,2	-		-	0,1	3,0	101,5
So'x	25,8	6,1		7,9	8,5	2,6	0,6
Toshloq	241,4	2,2		-	38,2	0,1	200,8
O'zbekiston	176,0	2,7		-	46,8	0,1	122,5
Farg'ona t	111,8	5,9		10,8	7,4	24,7	62,2
Dang'ara	87,3	-		-	4,1	0,3	82,8
Furqat	46,5	0,1		6,0	15,8	1,7	22,9
Yozyovon	50,2	0,1		-	33,5	1,2	15,3

**Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning
texnologik tarkibi**
(2022- yanvar-mart)

Shahar va tumanlar	Jami	Shu jumladan		
		Qurilish montaj ishlari	Mashinalar, asbob-uskunlar, inventarlar	Boshqa harajatlar
Viloyat jami:	2 750,2	43,9	48,1	8,0
Farg'ona sh	533,6	42,4	53,5	4,1
Qo'qon sh	254,3	55,2	44,0	0,8
Quvasoy sh	156,8	18,9	77,6	3,5
Marg'ilon sh	136,7	20,8	29,2	50,0
Oltiariq	95,8	44,0	49,0	7,0
Qo'shtepa	214,9	98,3	0,4	1,3
Bag'dod	99,0	46,9	35,9	17,2
Buvayda	46,6	60,3	32,7	7,0
Beshariq	115,1	13,8	79,3	6,9
Quva	78,5	27,8	61,3	10,9
Uchko'prik	173,8	58,0	38,6	3,4
Rishton	106,2	50,5	44,5	4,9
So'x	25,8	82,4	9,1	8,6
Toshloq	241,4	15,9	81,2	2,9
O'zbekiston	176,0	24,2	70,7	5,1
Farg'ona t	111,8	68,4	26,4	5,2
Dang'ara	87,3	16,3	56,8	26,9
Furqat	46,5	85,0	8,1	6,9
Yozyovon	50,2	61,9	10,4	27,6

**Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning
takror ishlab chiqarish tarkibi**
(2022- yanvar-mart)

Shahar va tumanlar	Jami investitsiyalar	Shu jumladan		
		Yangi qurilish	Kengaytirish, rekonstruksiya, modernizatsiya qilish va texnik qayta qurollantirish	Boshqa harajatlar
Viloyat jami:	2 750,2	73,7	14,6	11,7
Farg‘ona sh	533,6	47,0	29,5	23,5
Qo‘qon sh	254,3	72,0	20,7	7,3
Quvasoy sh	156,8	56,9	22,7	20,4
Marg‘ilon sh	136,7	86,1	6,5	7,4
Oltiariq	95,8	66,1	1,5	32,4
Qo‘shtepa	214,9	98,1	1,0	0,9
Bag‘dod	99,0	92,7	2,4	4,9
Buvayda	46,6	89,5	2,9	7,6
Beshariq	115,1	93,1	1,0	5,9
Quva	78,5	63,9	20,0	16,1
Uchko‘prik	173,8	71,7	17,7	10,6
Rishton	106,2	50,6	41,6	7,8
So‘x	25,8	85,6	9,2	5,2
Toshloq	241,4	90,0	6,5	3,5
O‘zbekiston	176,0	84,0	9,4	6,6
Farg‘ona t	111,8	80,7	6,3	12,9
Dang‘ara	87,3	88,2	6,0	5,8
Furqat	46,5	87,1	2,7	10,2
Yozyovon	50,2	92,0	1,1	6,9


Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar

	Yanvar–mart			
	Jami investitsiya mlrd. so‘m	Umumiy hajmga nisbatan %da	shundan: xorijiy investitsiya va kreditlar	
			mlrd. so‘m	Umumiy hajmga nisbatan %da
Jami, mlrd.so‘m	2 750,2	100,0	1 646,8	100,0
shu jumladan iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha:				
qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi	284,5	10,3	164,4	10,0
tog‘–kon sanoati	0,5	-	-	-
qayta ishlash sanoati	1 595,8	58,0	1 381,5	83,9
elektr, gaz, bug‘ bilan ta‘minlash va havoni konditsiyalash	39,2	1,4	12,7	0,8
suv bilan ta‘minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilizatsiya qilish	19,1	0,7	2,5	0,2
qurilish	21,7	0,8	0,5	-
ulgurji va chakana savdo, motorli transport vositalari va mototsikllarni ta‘mirlash	120,8	4,4	66,7	4,0
tashish va saqlash	88,9	3,2	-	-
yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	2,2	0,1	-	-
axborot va aloqa	10,9	0,4	9,2	0,6
moliyaviy va sug‘urta faoliyati	4,7	0,2	-	-
professional, ilmiy va texnik faoliyat	28,7	1,0	-	-
ta‘lim	52,6	1,9	5,5	0,3
sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish	28,1	1,0	3,9	0,2
boshqa iqtisodiy faoliyat turlaridan tashqari: turar – joy binolari qurilishiga investitsiyalar	395,8	14,4	-	-
san‘at, ko‘ngil ochish va dam olish	10,1	0,4	-	-
boshqa faoliyat turlari	7,3	0,3	-	-

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha tog‘–kon sanoatida – 0,5 mlrd. so‘m (jami investitsiyalar hajmida 0,02 %), kayta ishlash sanoatida – 1 595,8 mlrd. so‘m (58,0 %) shundan oziq–ovqat mahsulotlari, ichimliklar va tamaki mahsulotlari – 70,9 mlrd. so‘m (2,6 %), to‘qimachilik mahsulotlari va kiyim – 689,8 mlrd. so‘m (25,1 %), kimyo mahsulotlari – 44,0 mlrd.so‘m (1,6 %), nometall mineral mahsulotlar 301,1 mlrd. so‘m (10,9 %), metallurgiya – 2,8 mlrd. so‘m, elektr, gaz, bug‘ bilan ta‘minlash va havoni konditsiyalash – 39,2 mlrd. so‘m (1,4 %), qurilish – 21,7 mlrd. so‘m (0,8 %), tashish va saqlash – 88,9 mlrd. so‘m (3,2 %), ulgurji va chakana savdo, motorli transport vositalari va mototsikllarni ta‘mirlash – 120,8 mlrd. so‘m (4,4 %), axborot va aloqa – 10,9 mlrd. so‘m (0,4 %), professional, ilmiy va texnik faoliyat – 28,7 mlrd. so‘m (1,0 %), ta‘lim – 52,6 mlrd. so‘m (1,9%), boshqa iqtisodiy faoliyat turlaridan tashqari turar joy binolari qurilishiga – 395,8 mlrd. so‘m (14,4 %) investitsiyalar o‘zlashtirildi.

Kiritilgan investitsiyalarda katta ulushga ega bo'lgan sohalar

(yanvar-mart holatiga, %da)



Hududlar kesimida o'zlashtirilgan investitsiyalar

(2022- yil yanvar-mart)

	Umumiy hajm		Aholi jon boshiga	
	mlrd. so'm	o'sish sur'ati,%da	ming. so'm	o'sish sur'ati,%da
Viloyat jami	2 750,2	125,5	704,3	123,0
<i>shaharlar:</i>				
Farg'ona	533,6	107,1	1 779,1	105,0
Qo'qon	254,3	102,8	976,8	101,5
Quvasoy	156,8	102,1	1 614,3	100,1
Marg'ilon	136,7	104,1	562,6	102,5
<i>tumanlar:</i>				
Oltiariq	95,8	134,4	436,2	131,4
Qo'shtepa	214,9	269,1	1 080,6	262,2
Bog'dod	99,0	134,7	442,6	132,0
Buvayda	46,6	101,1	196,9	98,9
Beshariq	115,1	187,4	490,1	184,4
Quva	78,5	102,1	294,7	100,2
Uchko'prik	173,8	103,6	730,7	101,1
Rishton	106,2	210,4	508,7	206,4
So'x	25,8	102,6	319,9	100,9
Toshloq	241,4	169,8	1 147,7	166,0
O'zbekiston	176,0	165,6	713,0	162,5
Farg'ona	111,8	104,1	504,9	101,9
Dang'ara	87,3	141,9	481,5	138,4
Furqat	46,5	100,1	381,0	98,0
Yozyovon	50,2	111,7	436,1	109,2

Asosiy kapitalga kiritilgan xorijiy investitsiyalar

2022- yil yanvar-mart oylarida asosiy kapitalga kiritilgan xorijiy investitsiya va kreditlarning umumiy hajmi 1 646,8 mlrd.so‘m bo‘lib 150,2 mln. AQSh dollari yoki 2022-yilning mos davriga nisbatan 191,1 %ga o‘sdi. Jami xorijiy investitsiyalar 652,2 mlrd. so‘m bo‘lib, 59,5 mln. AQSh dollarini tashkil etdi, shundan 609,8 mlrd. so‘m to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar bo‘lib, 55,6 mln. AQSh dollarini, boshqa xorijiy investitsiyalar 42,4 mlrd.so‘m bo‘lib, 3,9 mln. AQSh dollarini tashkil etdi. Jami xorijiy kreditlar 994,7 mlrd.so‘m bo‘lib, 90,7 mln. AQSh dollari, shundan 49,7 mlrd.so‘m Hukumat kafolati ostidagi xorijiy kreditlar bo‘lib 4,5 mln. AQSh dollarini, kafolatlan- magan xorijiy kreditlar 945,0 mlrd.so‘m bo‘lib 86,2 mln. AQSh dollarini tashkil etdi.

Asosiy kapitalga kiritilgan xorijiy investitsiya va kreditlarning tarkibi


(2022- yil yanvar-mart)

	<i>mlrd. so‘m</i>	<i>shu jumladan :</i>	
		<i>davlat kafolati ostida</i>	<i>to‘g‘ridan-to‘g‘ri va boshqalar</i>
Jami asosiy kapitalga kiritilgan xorijiy investitsiya va kreditlar	1 646,8	49,7	1 597,1
<i>shu jumladan:</i>			
davlat	34,5	34,5	-
nodavlat	1 612,3	15,2	1 597,1

Hisobot davrida Farg‘ona viloyat bo‘yicha to‘g‘ridan – to‘g‘ri xorijiy investitsiya va kreditlar 1 646,8 mlrd.so‘mni tashkil etib, jami xorijiy investitsiya va kreditlardagi nodavlat sektoriga kiritilgan to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiya va kreditlarning ulushi 97,9 %ni tashkil qildi.

Xorijiy investitsiya va kreditlarning alohida iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha taqsimlanishi

(yanvar-mart, umumiy xajmga nisbatan, %da)



Xorijiy investitsiya va kreditlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha salmoqli qismining o'zlashtirilishi qayta ishlash sanoatiga to'g'ri kelib 1 381,5 mlrd.so'mni tashkil etib, jami xorijiy investitsiya va kreditlar hajmidagi ulushi – 83,9 %ni, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi sohasida – 164,4 mlrd.so'mni tashkil etib, jami xorijiy investitsiya va kreditlarning 10,0 %ni tashkil etdi.

Shu bilan birga, sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish sohasida 3,9 mlrd. so'mni, jami xorijiy investitsiya va kreditlarning 0,2 %ni, hamda ulgurji va chakana savdo, motorli transport vositalari va mototsikllarni ta'mirlash esa 66,7 mlrd. so'mni tashkil etib, jami xorijiy investitsiya va kreditlarning 4,0 %ni tashkil etdi.

Ushbu iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha xorijiy investitsiya va kreditlarning o'zlashtirilishi 2022- yilning yanvar-mart oylariga nisbatan ortganligi kuzatildi.

Ijtimoiy soha obyektlarini qurish

Uy-joy qurilishida 1 363,6 mlrd. so'mlik investitsiyalar o'zlashtirildi yoki jami investitsiyalar hajmining 10,6 %ni tashkil qildi.

2022- yilning yanvar-martda yangi qurilish va rekonstruksiya hisobidan foydalanishga topshirilgan turar-joy va ijtimoiy soha obyektlari

	<i>Barcha manbalar hisobidan</i>			
	<i>foydalanishga topshirildi</i>		<i>O'tgan yilning mos davriga o'sish sur'ati, %da</i>	
	<i>jami</i>	<i>shu jumladan qishloq joylarda</i>	<i>jami</i>	<i>shu jumladan qishloq joylarda</i>
Uy-joy, umumiy maydoni ming.kv.m	348,6	257,0	157,1	182,0
<i>undan:</i>				
yakka tartibdagi uy-joylar	348,5	241,7	157,1	171,2
yakka tartibdagi uy-joylar namunaviy loyihalar bo'yicha shahar va qishloq joylarda	15,3	15,3	-	-
Suv tarmoqlari, km	32,3	31,0	4,5 m.	4,3 m.
Gaz tarmoqlari, km	4,4	4,4	-	-


2022- yil yanvar-mart oylarida umumiy maydoni 348,6 ming kv.m. bo'lgan 1500 ta uy yoki 1813 ta kvartira (2021- yilning yanvar-mart oyiga nisbatan 131,2%), shu jumladan qishloq joylarida 257,0 ming. kv.m. bo'lgan 1098 ta uy yoki 1411 ta kvartira (154,9 %) uy-joy foydalanishga topshirildi.

Viloyat bo'yicha 32,3 km suv va 4,4 km gaz tarmog'i ishga tushirilgan bo'lib, ulardan 31,0 km suv va 4,4 km gaz tarmog'i qishloq joylarga to'g'ri keladi.

Qurilish faoliyati

2022- yil yanvar-mart oylarida 1 570,2 mlrd. soʻmlik qurilish ishlari bajarilib, oʻsish surʼati 2021- yilning yanvar–mart oylariga nisbatan 107,3 %ni tashkil etdi.

Hududlar kesimida qurilish ishlari oʻsish surati %



Hududlar kesimida qurilish ishlari umumiy hajmini koʻradigan boʻlsak, Fargʻona shahrida, 330,9 mlrd. soʻmlik qurilish ishlari bajarildi, jami qurilish ishlari hajmining 21,1 % (oʻtgan yilning mos davriga nisbatan 111,8 %) ni tashkil etdi. Qoʻqon shahrida 169,4 mlrd. soʻmlik qurilish ishlari bajarilgan boʻlib, jami qurilish ishlari hajmining 10,8 % (oʻtgan yilning mos davriga nisbatan 100,4 %) ni, Quvasoy shahrida 43,1 mlrd soʻmlik qurilish ishlari bajarildi, (jami qurilishdagi ulushi 2,7 %, oʻsish surʼati 100,3 %) ni, Margʻilon shahrida 236,4 mlrd soʻmlik qurilish ishlari bajarildi (jami qurilishdagi ulushi 15,1 %, oʻsish surʼati 102,9 %), Fargʻona tumanida 20,4 mlrd soʻmlik qurilish ishlari bajarildi (jami qurilishdagi ulushi 1,3 %, oʻsish surʼati 103,4 %), Oltiariq tumanida 42,7 mlrd soʻmlik qurilish ishlari bajarildi (jami qurilishdagi ulushi 2,7 %, oʻsish surʼati 107,6 %), Qoʻshitepa tumanida 82,2 mlrd soʻmlik qurilish ishlari bajarildi (jami qurilishdagi ulushi 5,2 %, oʻsish surʼati 104,4 %), Bagʻdod tumanida 163,3 mlrd soʻmlik qurilish ishlari bajarildi (jami qurilishdagi ulushi 10,4 %, oʻsish surʼati 103,0 %), Beshariq tumanida 24,0 mlrd soʻmlik qurilish ishlari bajarildi (jami qurilishdagi ulushi 1,5 %, oʻsish surʼati 100,1 %), Buyayda tumanida 84,5 mlrd soʻmlik qurilish ishlari bajarildi (jami qurilishdagi ulushi 5,4 %, oʻsish surʼati 116,9 %), Dangʻara tumanida 50,6 mlrd soʻmlik qurilish ishlari bajarildi (jami qurilishdagi ulushi 3,2 %, oʻsish surʼati 101,6 %), Quva tumanida 46,1 mlrd soʻmlik qurilish ishlari bajarildi (jami qurilishdagi ulushi 2,9 %, oʻsish surʼati 100,3 %), Rishton tumanida 30,2 mlrd soʻmlik qurilish ishlari bajarildi (jami qurilishdagi ulushi 1,9 %, oʻsish surʼati 113,8 %), Soʻx tumanida 23,7 mlrd. soʻmlik qurilish ishlari bajarildi (jami qurilishdagi ulushi 1,5 %, oʻsish surʼati 132,4 %), Toshloq tumanida 56,4 mlrd. soʻmlik qurilish ishlari bajarildi (jami qurilishdagi ulushi 3,6 %, oʻsish surʼati 136,7 %), Oʻzbekiston tumanida 51,2 mlrd soʻmlik qurilish ishlari bajarildi (jami qurilishdagi ulushi 3,3 %, oʻsish surʼati 107,4 %), Uchkoʻprik tumanida 39,6 mlrd soʻmlik qurilish ishlari bajarildi (jami qurilishdagi ulushi 2,5 %, oʻsish surʼati 106,5 %), Furqat


tumanida 30,2 mlrd so‘mlik qurilish ishlari bajarildi (jami qurilishdagi ulushi 1,9 %, o‘shish sur‘ati 100,0 %), Yozyovon tumanida 45,2 mlrd so‘mlik qurilish ishlari bajarildi (jami qurilishdagi ulushi 2,9 %, o‘shish sur‘ati 121,5 %).

Mulkchilik shakllari bo‘yicha qurilish ishlari tarkibi

	Yanvar–mart	
	2021- yil	2022- yil
Qurilish ishlari, mlrd. so‘m	1 289,8	1 570,2
<i>shu jumladan:</i>		
davlat	30,3	21,2
nodavlat	1 259,6	1 549,0

Qurilish ishlarini mulkchilik shakllari bo‘yicha ko‘rinishi

(yanvar-mart, umumiy hajmga nisbatan, %da)



Mulkchilikning nodavlat shaklidagi qurilish tashkilotlari tomonidan 1 549,0 mlrd. so‘mlik qurilish ishlari bajarilgan bo‘lib, jami qurilish ishlari hajmining 98,6 %ni tashkil qildi.

Mulkchilikning davlat shaklidagi qurilish tashkilotlari tomonidan 21,2 mlrd. so‘mlik qurilish ishlari bajarilgan bo‘lib, jami qurilish ishlari hajmining 1,4 %ni tashkil qildi. Qurilish ishlari umumiy hajmining 76,8 %ni yangi qurilish, rekonstruksiya qilish, kengaytirish va korxonalarni texnik qayta qurollantirishga 23,2 %ni esa kapital, joriy ta‘mirlashga va boshqa qurilish pudrat ishlariga to‘g‘ri keldi.

Hududlar kesimida qurilish ishlari

	<i>2021- yil yanvar-mart (mlrd. so‘m)</i>	<i>2022- yil yanvar-mart (mlrd. so‘m)</i>	<i>O‘tgan yilga nisbatan, % da</i>	<i>Jamiga nisbatan ulushi, % da</i>
Viloyat jami	1 289,8	1 570,2	107,3	100,0
Farg‘ona sh.	282,1	330,9	111,8	21,1
Qo‘qon sh.	146,8	169,5	100,4	10,9
Quvasoy sh.	37,2	43,1	100,3	2,7
Marg‘ilon sh.	196,4	236,4	102,9	15,1
Oltiariq	36,4	42,7	107,6	2,7
Qo‘shtepa	46,0	82,2	104,4	5,2
Bag‘dod	137,5	163,3	103,0	10,4
Buvayda	65,0	84,5	116,9	5,4
Beshariq	21,8	24,0	100,1	1,5
Quva	41,1	46,1	100,3	2,9
Uchko‘prik	33,5	39,6	106,5	2,5
Rishton	23,9	30,2	113,8	1,9
So‘x	15,9	23,7	132,4	1,5
Toshloq	38,2	56,4	136,7	3,6
O‘zbekiston	45,0	51,2	107,4	3,3
Farg‘ona t.	17,2	20,4	103,4	1,3
Dang‘ara	43,6	50,6	101,6	3,2
Furqat	27,5	30,2	100,0	1,9
Yozyovon	34,7	45,2	121,5	2,9

Farg‘ona viloyatida 2022- yil yanvar-mart oylarida sektorlar kesimida qurilish ishlari hajmlari ko‘rsatkichlari

Yirik pudrat tashkilotlari	<ul style="list-style-type: none"> • hajmi - 229,5 mlrd. so‘m • o‘shish sur'ati - 216,3 %.
Kichik korxon va mikrofirmalar	<ul style="list-style-type: none"> • hajmi- 902,0 mlrd. so‘m • o‘shish sur'ati- 88,2 %
Norasmiy sektor	<ul style="list-style-type: none"> • hajmi - 438,7 mlrd. so‘m • o‘shish sur'ati- 127,9 %

Binolar va inshootlarni qurish bo'yicha qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi ulushi 14,6%. Bunda kichik korxonalar va mikrofirmalar ulushi 52,3 % (10,6 %ga kamayib) va norasmiy sektorning ulushi 33,1 % (2,0 %ga ko'paydi) ni tashkil etdi.

Fuqarolik qurilishi obyektlarini qurilishi bo'yicha yirik pudrat tashkilotlarining ulushi 16,6 %ni tashkil etdi va o'tgan yilning mos davriga nisbatan 3,9 %ga ko'paydi. Shuningdek, kichik korxonalar va mikrofirmalar ulushi 63,7 %ni tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 19,7 %ga kamaydi. Norasmiy sektorning ulushi 19,7 % (15,8 %ga ko'paydi) ni tashkil etdi.

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari tarkibida yirik pudrat tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi o'tgan yilning mos davriga nisbatan 0,7 % punktga ko'paydi va 10,6 %ni tashkil etdi. Qolgan 89,4 % kichik korxonalar va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelib 2021- yilning yanvar-mart oylaridagi ko'rsatkichga nisbatan 0,7 % punktga kamaydi.